

IJTIMOIY PROFILAKTIKA – VIKTIMLIKNING SOTSIAL YECHIMI.

Xamdamov Umidjon Shuxrat o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 2-bosqich kursanti

Annatatsiya: Ushbu maqola orqali siz, Huquqbazarliklarni oldini olishning yangi turi hisoblangan ijtimoiy profilaktika tushunchasi, uning jamiyatda huquqbazarliklarni kamaytirishda tutgan muxim ro'li, ushbu profilaktikaning obektlari va amalga oshiruvchi subektlarning tasnifi, shuningdek ijtimoiy profilaktikaning boshqa profilaktika turlaridan nechog'lik farq qilishini ilmiy jihatdan asoslanganligini ko'rishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: Huquqbazarlik, huquqbazarliklar profilaktikasi, g'ayriijtimoiy xula atvor, huquqbazarlik sodir etishga moyil shaxs, huquqbazarlikdan jabrlanuvchi, ijtimoiy profilaktika, viktimalogiya,

Annotation: Through this article, we can see the concept of social prevention, which is a new type of crime prevention, its important role in reducing crime in society, the classification of the objects of this prevention and the implementing entities, as well as how it differs from other types of prevention and it is scientifically based.

Key words: Crime, crime prevention, antisocial behavior, person prone to crime, victim of crime, social prevention, victimology,

Аннотация: Благодаря данной статье вы узнаете о понятии социальной профилактики, которая представляет собой новый вид профилактики правонарушений, ее важной роли в снижении правонарушений в обществе, классификации объектов этой профилактики и субъектов-исполнителей, а также а также чем она отличается от других видов специальной профилактики социальной профилактики, мы видим, что она научно обоснована.

Ключевые слова: правонарушения, профилактика правонарушения, асоциальное поведение, склонный к правонарушению человек, жертва правонарушения, социальная профилактика, виктимология.

Kirish va Yangiliklar.

Hozirgi taraqqiy etib borayotgan zamon davlatning barcha sohalarida rivojlanishni talab etmoqda. Shuni e'tirof etish lozimki, huquqiy-demokratik, ijtimoiy taraqqiy etgan davlatni barpo etishda davlat hokimiyatining yuqori turuvchi organlari qarshisida jamoat xavfsizligini ta'minlashni yanada yaxshilash eng asosiy o'ylantiruvchi masala sifatida gavdalananadi. Chunki,

qachonki jamiyat xavfsizligiga xalq faravonligi taminlansagina, davlatning har tamonlama ya'ni iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy jihatdan o'sa boshlaganlini, biz, tarixdan ko'rishimiz mumkin. Yuqoridagi masala yuzasidan asosiy masuliyatni Huquqni muhofaza qiluvchi organlari tarkibidan Ichki Ishlar Organlarining Huquqbazarliklar Profilaktikasi faoliyati o'z zimmasiga oladi. Shu tufayli ham aynan davlat hokimyatining yuqori elitasi tomonidan ushbu sohani isloh qilish va faoliyatini takomillashtirish borasida bir qator islohotlar amalga oshirilyapti. Bularning yaqqol isboti sifatida Prezidentimiz farmoni bilan tasdiqlangan "Jamoat Xavfsizligi konsepsiysi" da belgilangan vazifalarni bajarish va PF 59-38 son bilan joriy etilgan "Obod va Xavfsiz mahalla" tamoyili asosida respublikada xavfsiz muhitni yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlikni ta'minlash vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi tomonidan qabul qilingan "Obod va xavfsiz mahalla tamoyili asosida respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish mexanizmlarini belgilash to'g'risidagi" 10/3/05 sonli qo'shma qaror misol bo'la oladi. Bizga malumki, Huquqbazarliklar profilaktikasining turlari quyidagilardan iborat: Huquqbazarliklarning umumiyligi, huquqbazarliklarning maxsus profilaktikasi, huquqbazarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi, huquqbazarliklar viktimilogik profilaktikasi.²³ Aynan yuqorida ta'kidlab o'tilgan qaror sharofati bilan, hozirda biz tatqiq etayotgan, profilaktikaning yangi turi – ijtimoiy profilaktika joriy etildi va bu haqida quyida batafsil to'xtalib o'tamiz.

Kuzatishalar va Natijalar.

Ijtimoiy profilaktika deganda, huquqbazarlik sodir etishga moyil yoxud huquqbazarlikdan jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslarga huquqiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy, pedagogik va boshqa turdag'i yordam ko'rsatishga, shuningdek ularga jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalari va qoidalarini singdirishga qaratilgan chora – tadbirlar majmui tushuniladi. Aynan profilaktikaning bu turi keng qavroviligi va amalga oshirish jihatdan ko'p kuch talab qilmasligi tufayli ham ancha samara berishi kutilyapti. Shu tufayli ham, hozirgi kunda ijtimoiy profilaktikadan respublikaning barcha mahallalarida foydalanishni, keng qamrovli ravishda, davlat hokimyatining joylarda huquqni qo'llash va huquqiy targ'ibotni amalga oshiruvchi organlari tomonidan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va mahalla profilaktika inspektorlariga tushuntirilib borilmoqda. Turli ilmiy adabiyotlarda ijtimoiy profilaktika atamasiga har xil ta'rif berilganini

²³ "Huquqbazarliklar profilaktikasi to'g'risidagi" qonun, 2014-yil.- 6-modda

ko'rishimiz mumkin. Masalan: Ijtimoiy profilaktika - ijtimoiy muammoning oldini olish, ijtimoiy og'ish yoki ularni keltirib chiqaradigan sabablarni bartaraf etish yoki zararsizlantirish orqali ularni ijtimoiy barqaror darajada ushlab turish, individual shaxslar va "xavf guruhlari" da yuzaga kelishi mumkin bo'lgan jismoniy, psixologik yoki ijtimoiy-madaniy to'qnashuvlarning oldini olishga qaratilgan, odamlarning normal turmush darajasi va sog'lig'ini saqlash va himoya qilishga qaratilgan ijtimoiy faoliyat.²⁴ Yoki bo'lmasa boshqa adabiyotda unga quyidagicha tarif erilgan: Ijtimoiy profilaktika, "xavf guruhida" bo'lgan o'spirinlarda jismoniy, psixologik, ijtimoiy-madaniy buzg'unchiliklarni oldini olishga qaratilgan faoliyatdir.²⁵

Har bir faoliyatni amalga oshiruvchi mas'ul, mansabdor shaxs – subekt bo'lganidek ijtimoiy profilaktikani ham bevosita amalga oshiruvchilari mavjud. "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyili asosidagi ishlar mahalla raisi, profilaktika inspektori, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi tomonidan uzviy hamkorlikda bajariladi.²⁶ Quyida biz ulardan eng ahamiyatlisi bilan tanishib chiqamiz.

Dastlabki eng asosiy, to'g'ridan-to'g'ri ushbu profilaktikani amalga oshirishga mas'ul bo'gani va ushbu faoliyatni muvofiqlashtiruvchi, ichki ishlar organlarining eng quyi bo'g'iniga kiruvchi subekt—profilaktika inspektoridir. Ushbu subektning ijtimoiy prafilaktikadai asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- ijtimoiy profilaktika obektlari bo'lgan shaxslarni aniqlash, ularning xulq – atvori va turmush tarzinio'rganish, birlamchi profilaktik ta'sir va moslashtirish chora-tadbirlarini qo'llash;

- tegishliligi jihatdan ijtimoiy prafilaktika obekti biriktirilgan subektlarining faoliyatlarini muvofiqlashtirish;

- zarur hollarda ushbu prafilaktika obektlari bilan ishlash bo'yicha kerakli amaliy va nazariy yordamlarni berish;

- ijtimoiy profilaktika obekti bo'lgan shaxslar bilan ushbu profilaktika subektlarining olib borgan profilaktik chora tadbirlari yakunlangandan so'ng, bir yil davomida ularning xulq-atvorini kuzatish va monitoringini tashkil etish.

Endi ushbu profilaktikaning obektiga to'xtaladigan bo'lsak uni shartli ravishda 2 bo'lishimiz mumkin, ya'ni huquqbazarlik sodir etishga moyil yoxud huquqbazarlikdan jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslar toifasiga.

² Туганбекова К.М., Тебенова К.С., Кударинова А.С., Садвакасова Н.А., Ашимханова Г.С. СОЦИАЛЬНАЯ ПРОФИЛАКТИКА – ВАЖНЕЙШЕЕ НАПРАВЛЕНИЕ СОЦИАЛЬНОЙ РАБОТЫ ДЕТЕЙ С ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ // Научное обозрение. Педагогические науки. – 2016. – № 1. – С. 66-68;

³ Рында И.В. СОЦИАЛЬНАЯ ПРОФИЛАКТИКА ОТКЛОНИЮЩЕГОСЯ ПОВЕДЕНИЯ В УСЛОВИЯХ СРЕДНЕЙ ШКОЛЫ // Международный студенческий научный вестник. – 2020. – № 3.

²⁶ "Obod va xavfsiz mahalla tamoyili asosida respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish mexanizmlarini belgilash to'g'risidagi" 10/3/05 sonli qo'shma qaror // 2023-yil 30-mart. 7-band

Yuqorida sanab o'tilgan shaxslar toifasiga quyidagicha xususiyatga ega bo'lganlar kirishi mumkin:

a) *huquqbuzarlik sodir etishga moyil shaxslar:*

- bandligi ta'minlanmagan mehnatga layoqatli bo'lgan, shu jumladan doimiy daromad manbaiga ega bo'lmasan shaxslar;
- farzand tarbiyasiga befarq munosabatda bo'layotgan ota-onalar yoki ularning o'rnnini bosuvchi shaxslar;
- alkogolni, shuningdek, psixotrop moddalarni va kishining aql-irodasiga;
- kuchli ta'sir etuvchi boshqa moddalarni suiiste'mol qiluvchi (me'yordan ortiq ichuvchi) xotin-qizlar va yoshlar;
- qimor va tavakkalchilikka asoslangan o'yinlarga ruju qo'ygan yoshlar;
- nizoli oilalar a'zolari (umumiyoq ro'zg'or asosida yashovchilar);
- jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilib, ijtimoiy moslashtirishga muhtoj bo'lgan shaxslar;
- uzoq vaqt davomida o'zaro nizo va adovatda bo'lib kelayotgan shaxslar (qo'shnilar, qarindoshlar va boshqa shaxslar);
- nazoratsiz va qarovsiz qolgan 14 dan 18 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar;
- turmushidan ajrashib, ijtimoiy-iqtisodiy og'ir ahvolga tushib qolgan ayollar;
- g'ayriijtimoiy xulq-atvorli yoshlar.

b) *huquqbuzarlikdan jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslar:*

- yolg'iz yashovchi ayollar va qariyalar;
- qonuniy nikohsiz yashovchi shaxslar;
- sudxo'rlik bilan shug'ullanuvchi shaxslar;
- g'ayriijtimoiy xulq-atvorli xotin-qizlar

Bu toifaga kiruvchi shaxslar profilaktika inspektori tomonidan "mahallabay" hamda "honardonbay" usullar bilan aniqlanadi va tegishli tartibda ularning hisobi yuritilib boriladi.

Endi ijtimoiy profilaktikani boshqa profilaktika turlaridan qanday farqli jihatlari borligiga to'xtalib o'tamiz. Dastlab huquqbuzarliklarning umumiyoq profilaktikasi haqida gaplashadigan bo'lsak, ushbu profilaktika turi o'zining o'ta keng qamroviligi va subektlar zimmasiga ijtimoiy profilaktikadagidek masuliyat yuklamasligi bilan farq qiladi. Huquqbuzarliklarning maxus profilaktikasini amalga oshirish uchun bizda ayrim toifadagi shaxslar yoki jinoyatlar sonining ortishi yoki bo'lmasa, muhim bayram tadbirlari va tashriflari asos bo'lishi, uni, ijtimoiy profilaktikaning sanab o'tilgan asoslari va chora-tadbirlariga qaraganda nechog'lik farq qilishini ko'satadi.

Huquqbezarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi ba'zi xususiyatlari ko'ra (har ikkala profilaktika turlarida ham har bir shaxs bilan alohida holda ish olib boriladi) o'xhash bo'lishi mumkin, biroq ijtimoiy profilaktika nafaqat profilaktika inspektori balki mahalla raisi, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi tomonidan amalga oshiriladi. Huquqbezarliklarning viktimologik profilkatikasi qolgan profilaktika turlariga nisbatan ijtimoiy profilktikaga juda yaqin ya'nini maqsad jihatdan, amalga oshiriladigan chora-tadbirlari va aholini huquqbezarlik jabrlanuvchisi bo'lish ehtimolini kamaytirishga qaratilganligi bilan o'xhash. Biroq u qo'shimcha obektga (ijtimiy profilaktikaning obektiga huquqbezarlik sodir etishga moyil shaxslar ham kiradi) egaligi va subektlarga qo'shimcha rag'bat yoki majburiyat (ushbu profilaktikaning amalga oshirishdagai kamchikilar intizomiy jazolanishga yoki erishilgan yaxshi natija mukofotlanishga sabab bo'ladi) yuklashi bilan farq qiladi.

XULOSA

Jamiyatga nazar solsak, jinoyatchi yoki huquqbezar shaxsi o'z-o'zidan shakllanib qolmasligini, uni shakllantiruvchi omillar, motivlar va turkilar siatida ijtimoiy jarayonlar muhim ahamiyat kasb etishini ko'ramiz. Kriminologik jihatdan qaraydigan bo'lsak sodir bo'ladigan barcha huquqbezarlik aslida bu alohida turdagи ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Shu tufayli ham ana shu huquqbezarliklarning sabablari va shart-sharoitlarini aniqlashni, bu orqali huquqbezarliklarni oldini olish usullarini ijtimoiy hayotdan qidirish kerak bo'ladi. Aynan biz aytib o'tgan bu sabablar ushbu biz tahlil qilayotgan yangi profilaktika turi - ijtimoiy prafilkatikani yurtimizda qo'llash zaruratini tug'diradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1."Huquqbezarliklar profilaktikasi to'g'risidagi" qonun, 2014-yil 14-mart;
- 2."Obod va xavfsiz mahalla tamoyili asosida respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish mexanizmlarini belgilash to'g'risidagi" 10/3/05 sonli qo'shma qaror, 2023-yil 30-mart;
3. Psixologiya: darslik / B.M. Umarov; 2012-yil – 272 b.
4. Туганбекова К.М., Тебенова К.С., Кударинова А.С., Садвакасова Н.А., Ашимханова Г.С. СОЦИАЛЬНАЯ ПРОФИЛАКТИКА – ВАЖНЕЙШЕЕ НАПРАВЛЕНИЕ СОЦИАЛЬНОЙ РАБОТЫ ДЕТЕЙ С ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ // Научное обозрение. Педагогические науки. – 2016. – № 1. – С. 66-68;

5. Рында И.В. СОЦИАЛЬНАЯ ПРОФИЛАКТИКА ОТКЛОНИЮЩЕГОСЯ ПОВЕДЕНИЯ В УСЛОВИЯХ СРЕДНЕЙ ШКОЛЫ // Международный студенческий научный вестник. – 2020. – № 3.

6."Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'rsida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-martdagi PQ-2833-sonli qarori.

5. Hassan Mohammadi Nevisi "16 Types of Crime Prevention " //xalqaro ilmiy maqola. 2019.

6.Беличева С. А. Основы превентивной психологии. М.: Социальное здоровье России, 2009. 224 с.